

MAHKUMLARNI TOPSHIRISHNING XALQARO-HUQUQIY PRINSIPLARI VA STANDARTLARI



Saidov Olim Chorikulovich

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ташкентский государственный юридический университет, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahkumlarni topshirish institutining xalqaro-huquqiy prinsiplari va standartlari kompleks tahlil qilingan, shuningdek, *jus cogens* normalari va imperativ prinsiplarning mahkumlarni topshirish jarayonidagi o'rni, *non-refoulement* prinsipi, ikki yoqlama sudlovlik (*double criminality*), *ne bis in idem*, o'zarolik va ixtiyoriylik prinsiplari batafsil yoritilgan. BMTning Chet ellik mahkumlarni topshirish to'g'risidagi namunaviy shartnomasi, Har qanday shaklda qamoqqa olingan shaxslarni himoya qilish prinsiplari to'plami kabi xalqaro hujjatlar tahlil qilingan. Mahkumlarni topshirish prinsiplari uch guruhga, umumiy xalqaro huquq prinsiplari, ekstraditsiya bilan bog'liq prinsiplar va mazkur institutning alohida xususiyatidan kelib chiqadigan maxsus prinsiplarga tasniflangan.

Kalit so'zlar: mahkumlarni topshirish, *jus cogens*, *non-refoulement*, ikki yoqlama sudlovlik, *ne bis in idem*, o'zarolik prinsipi, ekstraditsiya, ixtiyoriy rozilik, xalqaro-huquqiy standartlar, jinoyat protsessi prinsiplari.

INTERNATIONAL LEGAL PRINCIPLES AND STANDARDS FOR THE TRANSFER OF SENTENCED PERSONS

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of the international legal principles and standards governing the transfer of sentenced persons. The study examines *jus cogens* norms and peremptory rules as the highest normative foundation of this institution, alongside the *non-refoulement* principle, *double criminality*, *ne bis in idem*, reciprocity, and the voluntary consent of the sentenced person. Key international instruments are analysed, including the UN Model Agreement on the Transfer of Foreign Prisoners, the 1988 Body of Principles for the Protection of All Persons under Any Form of Detention or Imprisonment. The article proposes a three-tier classification of applicable principles: those rooted in general international law, those shared with the extradition regime, and those specific to the transfer institution itself.

Keywords: transfer of sentenced persons, *jus cogens*, *non-refoulement*, *double criminality*, *ne bis in idem*, reciprocity principle, extradition, voluntary consent, international legal standards, principles of criminal procedure.

Mahkumlarni topshirish jarayonining mohiyatini ochib berish va uning xalqaro odil sudlov tizimidagi o'rmini belgilash uchun sohaning asosi tashkil etuvchi bir qator fundamental prinsiplarni keng qamrovli tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ta'kidlash lozimki, har qanday xalqaro-huquqiy faoliyat, o'z tabiatiga ko'ra, uning yo'nalishi va o'ziga xos xususiyatini ifodalaydigan ma'lum qonun va prinsiplarga asoslanadi. Jinoiy odil sudlov prinsiplari, jinoyat protsessi ishtirokchilarining faoliyatini tartibga soluvchi va ularning huquqiy maqomini belgilovchi fundamental asos bo'lib xizmat qiladi [1]. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessining asosiy prinsiplari batafsil sanab o'tilgan bo'lib,

ular sirasiga qonuniylik, odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarliligi, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda aybsizlik prezumpsiyasi kabi muhim qoidalar kiradi.

Mahkumlarni topshirish prinsiplari jinoyat protsessining yuqoridagi umumiy prinsiplariga nisbatan yanada maxsuslashtirilgan va xalqaro hamkorlik xususiyatlari bilan boyitilgan bo'ladi. Shunday ekan, yuridik adabiyotlarda keng doirada tahlil etilgan jinoiy odil sudlov bo'yicha xalqaro hamkorlik qilish masalasi xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari bilan birga, jinoyat ishlari bo'yicha davlatlararo hamkorlikka oid xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikdagi o'ziga xos rahbariy prinsiplarga ham asoslanadi [2].

Jumladan, mahkumlarni topshirish prinsiplari ham maxsus prinsiplar shaklida namoyon bo'lsa-da, uning negizi xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplariga tayanadi. Yuridik fanda mahkumlarni topshirish bo'yicha xalqaro hamkorlik prinsiplarining yagona va mutlaq tizimi haligacha to'liq ishlab chiqilmagan. Buning sababi, bir tomondan, tadqiqot predmetining komplekslik tabiati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu muammoni global darajada tartibga soluvchi yagona majburiy normativ hujjatning mavjud emasligi bilan ham belgilanadi. Lekin, shunga qaramay, mazkur masala yuzasidan xalqaro hujjatlarda, ba'zi davlatlar qonunchiligi normalarida va xalqaro huquqshunos olimlar asarlarida o'ziga xos fikrlar va tizimli yondashuvlar aks etgan.

Mahkumlarni topshirish institutining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan asosini *Jus cogens* prinsiplari va imperativ normalar tashkil etadi. Xalqaro ommaviy huquqda hech qanday chekinish yoki istisnolarga yo'l qo'ymaydigan ushbu oliy darajadagi majburiyatlar davlatlarning mahkumlarni topshirish jarayonidagi xatti-harakatlarining qonuniylik chegarasini qat'iy belgilab beradi. Antonio Kasse (Cassese) [3] va Gerxard Verle (Werle) [4] singari xalqaro jinoyat huquqi sohasining yirik namoyandalari ta'kidlaganidek, xalqaro jinoyat huquqining maxsus prinsiplari umume'tirof etilgan imperativ normalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlatlarning suveren xohish-irodasidan ustun turadi. Bu kontekstda, ayniqsa, inson huquqlarini umumjahon miqyosida hurmat qilish va qiynoqlarni mutlaq taqiqlash prinsiplari mahkumlarni topshirish masalasida davlatlar zimmasiga qat'iy majburiyatlar yuklaydi.

Mahkum o'z davlati hududida yoki ikkinchi davlat hududida yoxud uchinchi davlat hududida jinoyat sodir etganligi uchun sud hukmi bilan jazoni ijro etuvchi shaxs bo'lsa-da, u, birinchi navbatda, inson va uning inson sifatidagi huquqlari har qanday vaziyatda himoya qilinishi lozim. Shu maqsadda 1988-yil 9-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 43/173-son rezolyutsiyasi bilan Har qanday shaklda qamoqqa olingan yoki jazoni ijro etayotgan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari to'plami tasdiqlangan [5].

Ushbu hujjat mahkumlarni saqlash va ularni boshqa davlatga o'tkazish bilan bog'liq qoidalarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unga ko'ra har qanday shaklda hibsga olingan shaxsga nisbatan insonparvarlik va insonning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilish (1-prinsip), qamoqqa olish qonun-qoidalariga qat'iy amal qilgan holda faqat vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshirilishi (2-prinsip) talab etiladi. Shuningdek, inson huquqlarini cheklash yoki kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi (3-prinsip), inson huquqlariga ta'sir qiluvchi barcha choralar faqat sud qarori asosida bo'lishi (4-prinsip) va hibsga olingan shaxs hech qanday qiynoq yoki g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaga duchor qilinmasligi (6-prinsip) kafolatlanadi. Tergov va jazoni ijro etish organlarining faqat qonun doirasida harakat qilishi (9-prinsip), shaxsga hibbs sabablarini darhol ma'lum qilish (10-prinsip), advokat yordamidan foydalanish huquqi (17-prinsip), aybga iqror bo'lishga majburlashning taqiqlanishi (21-prinsip), sog'liqqa zarar yetkazuvchi ilmiy tajribalardan

himoyalani (22-prinsip), bepul tibbiy xizmat olish (24-prinsip) va davlat mansabdor shaxsining noqonuniy harakatlari oqibatida yetkazilgan zararning qoplanishi (35-prinsip) kabi imperativ talablar mahkumlarni topshirish sohasida davlatlar amal qilishi shart bo'lgan eng kichik xalqaro standartlarni tashkil etadi.

Inson huquqlari xalqaro tizimida mahkumlarni topshirish instituti bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir muhim asos – bu inson huquqlari va o'lim jazosini qo'llamaslik hamda *non-refoulement* (qaytarib yubormaslik) prinsipi. Ushbu prinsipning xalqaro huquqiy mohiyatiga binoan, agar mahkum topshirilayotgan davlatda uni o'lim jazosi, qiynoqlar, shafqatsiz va g'ayriinsoniy muomala yoki inson huquqlarining boshqacha tarzda tizimli va qo'pol ravishda buzilishi xavfi kutayotgan bo'lsa, davlatlar zimmasiga uni topshirishni rad etish majburiyati yuklanadi. D.N. Shuruxnova [6] o'z tadqiqotlarida, inson huquqlarining ta'minlanishi va shaxs huquqlari kafolatlarini mahkumlarni topshirishning asosiy mezoni sifatida baholagan bo'lsa, T.V. Reshetneva [7] ushbu tizimni shaxslarni ekstraditsiya qilish prinsiplari bilan solishtirib, ekstraditsiya va mahkumlarni topshirish bo'yicha davlatlarning xalqaro hamkorlik borasida kelishib olishi prinsipi, maxsuslashuv prinsipi, ikkiyoqlama sudlovlik prinsipi hamda ushbu tartiblarni amalga oshirishda inson va fuqarolik huquq va erkinliklari konsepsiyasini hisobga olish prinsipi ikkala institutda ham himoya mexanizmi sifatida ishlashini va muallif bu prinsiplarni mahkumlarni topshirishda va ekstraditsiya jarayonida ishlash mexanizmining farqli jihatlarini batafsil yoritib berganini ta'kidlaydi. BMTning Chet ellik mahkumlarni topshirish to'g'risidagi namunaviy shartnomasining [8] birinchi bo'limi asosiy prinsiplarga bag'ishlangan bo'lib, unda mahkumlarni topshirish jarayonining ustuvor qoidalari qayd etilgan. Xususan, davlatlarning xalqaro hamkorligi prinsipi, davlatlarning hamkorligi natijasida jazo o'tayotgan mahkumlarning vataniga qaytish imkoniyatini berish hamda normal hayotga qaytishini ta'minlashni nazarda tutadi, bu esa mazkur namunaviy shartnomaning to'liq maqsadini ifodalaydi.

Namunaviy shartnomada, agar mahkum fuqaroligiga ega bo'lgan davlat va doimiy yashovchi davlat har xil bo'lgan taqdirda, qaysi davlatga topshirilishi aniq nazarda tutilmagan bo'lsa-da, u mahkumlarning topshirilishi masalasini fuqaroligiga ega bo'lmagan, ammo uning hududida istiqomat qiladigan shaxslarni qabul qiluvchi davlat ixtiyoriga qoldiradi. Biroq, har qanday holatda ham, chiqarilgan hukm ijrosini davom ettirish uchun iloji boricha mahkumlarni topshirish jarayonini tezroq amalga oshirishi lozim. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo'yicha Oltinchi Kongressi [9] tomonidan ham tavsiya etilganidek, mahkumlarning topshirilishiga rozilik berishi shart bo'lgan talab, mahkumlarni davlatdan chiqarib yuborish usuli yoki jinoyatchilarni norasmiy ekstraditsiya qilish vositasi sifatida qo'llanilmasligini kafolatlaydi [10].

Davlatlararo munosabatlar va xalqaro ommaviy huquq darajasida esa suverenitet, o'zaro manfaat va birgalik prinsiplari yetakchi va tartibga soluvchi rol o'ynaydi. Yurisdiksiya va davlat suverenitetini o'zaro hurmat qilish prinsipiga ko'ra, hech qaysi davlat mahkumni topshirish bo'yicha qilingan murojaatni amalga oshirish majburiyatiga ega emas hisoblanadi, chunki suveren davlat o'z hududida odil sudlovni va jazo ijrosini mustaqil amalga oshirish huquqiga ega. Shunga qaramasdan, ikki davlat mazkur jarayonni amalga oshirishga rozilik bildirsa (albatta mahkumlarning roziligini ham unutmazlik kerak) davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch ortishiga sabab bo'ladi. O'zarolik prinsipi (*reciprocity principle*) xalqaro hamkorlikning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, uzoq vaqtlardan buyon ma'lum. Birgalik, ya'ni o'zarolik prinsipi, xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan taqdirda, xorijiy davlatning vakolatli organlari bilan tuzilgan yozma shartnoma yoki va'dalar asosida amalga oshiriladi, bunda tomonlar mazkur protsessual harakatlarni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va mahkumlar topshirilishi uchun protsessual kafolatlarni o'z ichiga olgan milliy qonunchilikka asoslangan holda amalga oshiradilar [11].

Shunday ekan, davlatlar o'rtasida ratifikatsiya qilingan shartnoma bo'lmasa-da, vakolatli organ taqdimnomasi asosida xorijiy davlat sudi hukmini tan olish bo'yicha sud ijobiy qaror chiqargan taqdirda hamda mahkum yoki qonuniy vakilining arizasi va iltimosnomasiga ko'ra shaxsni topshirishni amalga oshirish mumkin bo'ladi. O'zarolik prinsipi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, unga ko'ra, davlatimiz hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish va topshirish to'g'risidagi so'rovni yuborgan xorijiy davlat vakolatli organining shunga o'xshash vaziyatda O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining so'rovi bilan shaxsni ushlab berish va topshirishni amalga oshirishi haqidagi yozma va'dasi bilan tasdiqlanadi.

Topshirish jarayonining moddiy va protsessual shartlarini belgilashda fuqarolik, qo'sh jinoyat (*double criminality*) va ixtiyoriylik prinsiplari markaziy va hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahkumlarni topshirish institutining tub mohiyati xorijda jazo o'tayotgan shaxsni uning o'z fuqaroligi bo'lgan davlatga ijtimoiy reabilitatsiya va resotsializatsiya qilish uchun yuborishdan iboratdir. Ikki yoqlama sudlovlik yoki qo'sh jinoyat prinsipi an'anaviy tarzda xalqaro jinoyat huquqi institutlari bilan bog'liq bo'lib, mazkur prinsip nafaqat ekstraditsiya qilishda, balki jinoyat ishlarini yuritishda va xorijiy davlat sud hukmini ijro etishda ham qat'iy talab qilinadi.

Xalqaro huquqda ushbu prinsip ba'zi hollarda "jinoyat tarkibini ikki yoqlama belgilovchi prinsip", "ikki yoqlama jinoyatlik" va "ikki tomonlama hisobga olish prinsipi" deb ham ta'kidlanadi [12]. Mazkur prinsipni amalga oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim: qilmish har ikkala mamlakat qonunchiligida ham jinoyat sifatida tan olingan hamda jinoyat qonunining tegishli normalari bilan taqiqlangan bo'lishi lozim. Ikki yoqlama sudlovlik prinsipi shartlarini bajarayotganda, sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilishda boshqa davlat qonunchiligiga to'liq mos kelishi ahamiyatga ega emas, asosiysi, shunday qilmish har ikkala davlatda ham jinoyat hisoblanishidir. Bu prinsipni davlatlarning milliy qonunlarida, xususan, Kanadaning "Xalqaro darajada huquqbuzarlarni topshirish to'g'risida"gi aktida ko'rsatilgan normalarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin [13]. Mahkum topshirilishiga rozilik berishi prinsipi esa mahkumning o'z xohishi bilan xorijiy davlatning jazoni o'tash muassasasi rahbariga ariza berishi orqali amalga oshiriladi. L.L.Santashova buni "uch kalit" prinsipi deb ataydi va uning mohiyatini, birinchidan, mahkumning yoki qonuniy vakilining yozma roziligi, ikkinchidan, fuqaroligi bo'lgan xorijiy davlat vakolatli organlarining roziligi, uchinchidan esa, hukm e'lon qilgan davlatning roziligi tashkil etishini asoslaydi [14].

Topshirish to'g'risidagi bitim xalqaro hujjat bo'lgani uchun qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan yagona subyekt bu suveren davlatlardir, biroq ular mahkumning va uning yaqin qarindoshlarining vataniga qaytish bilan bog'liq istaklarini inobatga olishlari kerak bo'ladi.

Nihoyat, mahkumlarni topshirishning huquqiy chegaralari va uning suveren nazorati *Speciality rule* (maxsus qoida) va qaror qabul qilishda diskretion vakolat prinsiplari orqali tartibga solinadi. Maxsus qoidaga muvofiq, qabul qiluvchi davlatga topshirilgan mahkum u yerda faqat o'zi topshirilishiga asos bo'lgan sud hukmidagi jinoyati uchunгина jazo o'taydi va uning topshirilishidan oldin sodir etgan boshqa qilmishlari uchun hukm chiqargan davlatning roziligisiz yangidan javobgarlikka tortilishi mumkin emas [15]. Turli bosqichlarda mahkumlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ta'minlanishi jarayonida mahkumga fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi bo'lgan davlatga topshirish imkoniyati va uning huquqiy oqibatlari, jumladan, uning topshirilishidan oldin sodir etilgan boshqa huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida to'liq ma'lumot berilishi nazarda tutiladi. Mahkumlar bilan muomalada bo'lishning minimal standart qoidalariga ko'ra, mazkur ma'lumotlar mahkum tushunadigan tilda berilishi lozim.

Shu bilan birga, bir jinoyati uchun ikki marta jazolanmaslik (*ne bis in idem*) prinsipi ham jinoyat odil sudlovga oid deyarli barcha konvensiyalar va ikki tomonlama shartnomalarda o'z aksini topgan

bo'lib [16], xorijiy davlat tomonidan chiqarilgan hukm kuchga kirgan bo'lsa, mahkum topshirilayotgan paytda, hukmni ijro etuvchi davlat yana bir bor ishni sudga oshirishi mumkin emas. Xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi boshqa xalqaro hujjatlarda ham ushbu prinsiplar, shartnoma maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shakllantirilgan.

Tahlil qilinayotgan soha prinsiplari haqida milliy va xorijlik huquqshunos olimlar ham o'z nuqtai nazarlarini bildirib o'tganlar. Mamlakatimizda jinoiy odil sudlovga oid prinsiplarni tahlil qilgan va o'zlarining bu borada ilmiy xulosalarini bergan olimlar qatoriga R.A. Sayfulov [17], D.Sh. Umarxonova [18] va F.M. Fayziyevni [19] kiritish mumkin. Xorijiy mamlakatlar olimlaridan esa, V.V. Milinchuk [20], Yu.V. Minkova [21] va N. Safarovning [22] ilmiy ishlari diqqatga sazovor bo'lib, ular, asosan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari bilan xalqaro jinoyat huquqining maxsus prinsiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ularning jinoiy odil sudlov bo'yicha xalqaro hamkorlikka bevosita ta'sirini ko'rsatib berganlar.

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, mahkumlarni topshirishga oid prinsiplar bevosita uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi: komplekslilik xarakteriga ega ekanligi (xalqaro huquq, xalqaro jinoyat huquqi, jinoyat protsessi va jinoyat-ijroiya huquqlari asosida mustaqil huquqiy tizimlarning birgalikdagi harakati), xalqaro va milliy huquq bilan bir vaqtda tartibga solinishi hamda shaxsning xorijiy davlat hududida jinoyat sodir etganligi va jazoga tortilganligi natijasida, uni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish maqsadini ko'zlashidir. Mazkur xususiyatlardan kelib chiqqan holda, mahkumlarni topshirish bo'yicha davlatlar hamkorligining asosiy prinsiplari tizimini uchta yirik guruhga ajratish mumkin:

birinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga bevosita bog'liq bo'lgan prinsiplar (davlatlarning xalqaro hamkorligi, davlat suverenitetini hurmat qilish, inson huquqlarini hurmat qilish);

ikkinchidan, ekstraditsiya instituti bilan bog'liq bo'lgan umumiy prinsiplar (ikki yoqlama sudlovlilik, *ne bis in idem*, o'zarolik prinsipi);

uchinchidan, mahkumlarni topshirish institutining alohida xususiyatidan kelib chiqqan maxsus prinsiplar (tomonlarning roziligi va mahkumning topshirilishiga o'z ixtiyori bilan rozilik berishi prinsipi).

Foydalanilgan manbalar / References

1. Saidov B.A., Umarxonov A.Sh. Jinoyat protsessi prinsiplari: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2010.
2. Umarxonova D. Sh. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik prinsiplarining o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi, 2017. – 3(30). – 57-61-b.
3. Cassese, A. International criminal law (2nd ed.). Oxford University Press, 2000.
4. Werle, G. Principles of International Criminal Law (2nd ed.). T.M.C. Asser Press, 2009.
5. United Nations. Body of Principles for the Protection of All Persons under Any Form of Detention or Imprisonment. General Assembly resolution, 1988. 43/173. <https://www.un.org>
6. Шурухнова Д. Н. Выдача, передача и выдворение лиц в отношениях государств (права, законные интересы личности и их гарантии): Дис. канд. юрид. наук. – М., 200). – С.58.
7. Решетнева Т. В. Экстрадиция полипатридов в российском уголовном судопроизводстве: проблемы теории и практики (Диссертация кандидата юридических наук). – Ижевск, (2009). – С. 100.
8. United Nations. Model Agreement on the Transfer of Foreign Prisoners and recommendations on the treatment of foreign prisoners. Seventh United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders. – Milan, 1985.
9. United Nations. Report of the Sixth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders. – Caracas, 1980.
10. UNODC. Congresses of the United Nations on Crime Prevention and Criminal Justice 1955–2020 (Achievements over 65 years). United Nations Office on Drugs and Crime Brochure, 2020. – P. 7-9.

11. Санташова Л. Л. Передача лиц, осуждённых к лишению свободы, для отбывания наказания в государствах их гражданства (Диссертация кандидата юридических наук). – Вологда, 2017. – С. 36.
12. Gardocki L. (1993). Double Criminality in Extradition Law. Israel Law Review, 27(1-2), 288-296. <https://doi.org/10.1017/S0021223700016952>
13. Government of Canada. (1999). Extradition Act (S.C. 1999, c. 18). Justice Laws Website. <https://laws-lois.justice.gc.ca>
14. Санташова Л. Л. Передача лиц, осуждённых к лишению свободы, для отбывания наказания в государствах их гражданства (Диссертация кандидата юридических наук). Вологда, 2017. – С. 37.
15. United Nations. Model Agreement on the Transfer of Foreign Prisoners and recommendations on the treatment of foreign prisoners. Seventh United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders. – Milan, 1985.
16. Council of Europe. (1983). Convention on the Transfer of Sentenced Persons. ETS No. 112. <http://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/112>
17. Сайфулов Р. А. Экстрадиция в уголовном процессе (по материалам МВД и Прокуратуры Республики Узбекистан): Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Т., 2001.
18. Umarxonova D. Sh. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish masalalari: Автореф. дис. д-ра юрид. наук. – Т., 2018.
19. Файзиев Ф. М. Международно-правовое регулирование отношений между государствами по оказанию правовой помощи: Дис. канд. юрид. наук. – Т., 2007.
20. Миличук В. В. Институт взаимной правовой помощи по уголовным делам: Действующая практика и перспективы развития. – М.: Юрлитинформ, 2001.
21. Минкова Ю. В. Принципы института выдачи (экстрадиции) в международном праве: Монография. – М., 2002.
22. Сафаров Н. Экстрадиция в международном уголовном праве: проблемы теории и практики. – М.: Волтерс Клувер, 2005.

